

6-mavzu: Qishloq xo'jalik korxonalarining moddiy-texnik va innovatsion ta'minoti.

REJA:

6.1. Qishloq xo'jalik korxonalarining moddiy-texnik va innovatsion ta'minoti tushunchasi. Ishlab chiqarishni tashkil etish manbalarining shakllanishi va ulardan foydalanishni tashkil etish.

6.2. Xo'jalikni yangi traktorlar va boshqa qishloq xo'jalik mashinalariga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash.

6.3. Qishloq xo'jalik texnikalariga texnik xizmatlar ko'rsatish va ta'mirlash.

6.4. Moddiy-texnik va innovatsion ta'minotini tashkil etishning yangi shakllari.

6.5. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining moddiy-texnik va innovatsion ta'minotini tashkil etish.

Tayanch iboralar: amortizasiya, asosiy kapital, aylanma kapital, joriy ta'mir, kapital, kapital ta'mir, lizing, mashina ta'miri, traktor ishlarini bajarishning zagon usuli.

Foydalangan adabiyotlar.

Asosiy adabiyotlar

1. Samatov G.A., Yodgorov J.Yo., Rustamova I.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish. Darslik. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». - Toshkent: ToshDAU taxririyyat- nashriyyot bo'limi, 2005. - 508 b.

2. Samatov G.A., Rustamova I.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish. Ma'ruza matni. - Toshkent: ToshDAU taxririyyat-nashriyyot bo'limi, 2008. - 120 b.

3. Samatov G.A., Rustamova I.B., Gaybullayev O.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish fanidan amaliyot darslari uchun uslubiy ko'llanma. - Toshkent: ToshDAU taxririyyat- nashriyyot bo'limi, 2008. - 120 b.

4. Jo'rayev F. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. Darslik. - Samarqand: Samarqand qishloq xo'jalik instituti, 2004y.

5. Xakimov.R., Yusupov.E.D. "Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti". O'quv qo'llanma. Toshkent- 2004 y.

Xorijiy adabiyotlar:

1. Agrarmanagement Jens Pape, Clemens Morath, Reiner doluschitz ISBN-10:3-8252-3587-4, EAN:978382523587

2. Barrick, R. K. Harmon, H. L. Animal Production and Management Ed: Gregg Division McGraw-Hill (1988-02-01) ISBN 10: 007003852X / ISBN 13: 9780070038523

3. Connor, D. J.; Loomis, R.S.; Cassman, K.G. 2011. Grop Ecology. Productiviti and Management in Agricultural Systems. University Press ISBN: 9780521744034.

4. Modernes Agrarmanagement: Betriebswirtschaftliche Analyse-und Planungsvefahren MuBhoff, Hirschauer (2013) 3. Auflage, Vahlen-Verlag, Munchen.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22 oktyabr 2012 yildagi «O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4478- sonli Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 29 sentyabrda Namangan viloyatiga 29-30 sentyabr kunlari Farg'ona viloyatiga tashriflari chog'ida bergan topshiriqlari bo'yicha chora - tadbirlar.

3. Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. - T.: «O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg'armasi», 2004. - 346 bet.

4. Komiljonov B.I. Innovatsion menejment uslublarini takomillashtirish. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyyoti, 2007.

5. Samatov G'.A., Yodgorov J.Yo., Rustamova I.B. Qishloqda zamonaviy bozor infratuzilmasini kompleks rivojlantirish va servis xizmatini tashkil etishning asoslari (fermerlar tayyorlash va

qayta tayyorlash bo'yicha biznes maktablar tinglovchilari uchun qo'llanma).-T.:ToshDAU taxririya 2004y.

6.Umurzoqov U.P. va boshq. Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. - T.: "Iqtisod-moliya", 2007. - 276 b.

7.Farmonov T.H. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish istiqbollari. - T.: «Yangi asr avlodi», 2004. - 144 s.

8.Shakirov F.K., Korolev Yu.B., Pastuxov A.K. i dr. Organizatsiya selskoxozyaystvennogo proizvodstva i menedjment: uchebnik dlya vuzov. - M.: Kolos OOO, 2008. - 607 s.

6.1. Qishloq xo'jalik korxonalarining moddiy-texnik va innovasion ta'minoti tushunchasi. Ishlab chiqarishni tashkil etish manbalarining shakllanishi va ulardan foydalanishni tashkil etish.

Asosiy vositalar haqida tushuncha va ularning turlari. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi fondlari xizmat qilish muddatiga va ishlab chiqarish jarayonida qatnashish xarakteriga qarab asosiy va aylanma fondlariga bo'linadi.

Asosiy fondlar (mashinalar, asbob-uskunalar va hoka-zolar) ishlab chiqarish jarayonida o'zining dastlabki natija shaklini o'zgartirmaydi. Ular yangidan vujudga keltirilgan mahsulot yoki bajarilgan ishga o'z qiymatini qismlar bo'yicha, fizik yeyilishiga yoki amortizatsiyasiga qarab o'tkazadi.

Asosiy fondlar juda xilma-xil bo'lib mehnat vositalarining anchagina qismini o'z ichiga oladi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish fondlarining qanday maqsadda ishlatilishiga qarab, quyidagi tavsif qabul qilingan.

1.Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan asosiy ishlab chiqarish fondlari: binolar, inshootlar, uzatuvchi moslamalar, mashinalar va asbob-uskunalar, o'lchash va sozlash asboblari hamda uskunalar, laboratoriya asboblari va boshqa asosiy fondlar.

2. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan asosiy ishlab chiqarish fondlari: sanoat-ishlab chiqarish fondlari, qurilish fondlari, savdo va umumiy ovqatlanish fondlari.

3. Ishlab chiqarishga mo'ljallanmagan asosiy fondlar: uy-joy xo'jaligi, kommunal xo'jaligi va maishiy xizmat fondlari, maorif tashkilotlari, madaniyat va san'at tashkilotlari, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sosial ta'minot tashkilotlari fondlari.

Asosiy fondlarning o'sishi va takomillashuvi qishloq xo'jaliginig moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlashning, qishloq mehnatkashlari moddiy va madaniy turmush darajasini oshirishning hal qiluvchi shartidir. Fondlarning hajmi va tarkibi ko'pgina shartlar bilan belgilanadi. Ulardan asosiy -dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish darajasi, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini ixtisoslashtirishning yanada takomillashtirilishidir.

Aylanma fondlar o'z qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulotga yoki bajarilgan ishga batamom o'tkazadi. Aylanma fondlarning tarkibiy qismlari ishlab chiqarish fondlari va muomala fondlari bo'lib, ular o'rtasida uzviy aloqa va o'zaro bog'lanish mavjuddir.

Ana shu guruhlar tarkibini keltirib o'tamiz.

Aylanma ishlab chiqarish fondlari:

- yosh mollar va bo'rdoqiga boqilayotgan mollar, parran-dalar, yovvoyi hayvonlar va asalari uyalari;

- ishlab chiqarish zaxiralari, ozuqa, urug'liklar, ko'chatlar, ehtiyot qismlar, neft mahsulotlari, yoqilg'i, mineral o'g'itlar, yordamchi korxonalar qayta ishlash uchun xomashyo, tara (idish), qo'shimcha materiallar, arzonbaho va tez ishdan chiqadigan buyumlar.

- chorvachilikdagi, sanoat korxonalarini va ustaxonalardagi tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi yillar hosili uchun qilingan xarajatlar.

Muomala fondlari-ombordagi tayyor mahsulot, do'konlardagi mollar, pul mablag'lari va hisobdagi mablag'lardir. Aylanma mablag'larining hajmi va tuzilmasi asosiy fondlar singari xo'jaliklarning ixtisoslashtirilishi bilan belgilanadi, ya'ni asosiy, qo'shimcha va yordamchi tarmoqlarning rivojlanish darajasi hamda birga qo'shib olib borishga bog'liq bo'ladi.

Korxonalarining aylanma mablag'lari bilan oqilona taminlanishi, ishlab chiqarish jarayonida ulardan to'liq va samarali foydalanish eng kam mehnat va mablag' sarflangan holda olinadigan yalpi mahsulotni ancha ko'paytirish imkonini beradi.

Asosiy fondlarni baholash. Qishloq xo'jalik korxonalarining asosiy fondlari natura va pul shaklida hisobga olinadi hamda rejalashtiriladi. Natura shaklidagi ko'rsatkich ishlab chiqarish fondlarining miqdor va sifat holatini ko'rsatadi. Pul shaklidagi ko'rsatkich esa asosiy fondlarning o'sib borishi uchun sarflanib borilgan pul summasini va ularning eskirish qiymatini ko'rsatadi.

Asosiy fondlar boshlang'ich, qoldiq va tiklash qiymatlari bilan baholanadi. Boshlang'ich qiymat asosiy fondlarni tashkil etishdagi haqiqiy sarflangan xarajatlarni ko'rsatadi. Bu sotib olish qiymatini va xo'jalikka keltirish, montaj qilish va boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi. Qoldiq qiymat- asosiy qiymat fondlaridan yeyilish (eskirish) qiymati chiqarib tashlangandan qolgan qismini ko'rsatadi. Tiklash qiymati esa, bu mulklarni sotib olish qiymatidir.

Qishloq xo'jalik korxonalarida sotib olinadigan mulklarning, traktorlar, qishloq xo'jalik mashinalari va boshqalarning sotilish narxi tez-tez o'zgarib turadi. Shu munosabat bilan bir xil mashinalarning boshlang'ich qiymati har xil bo'lib qoladi. Shuni hisobga olib, hukumat qishloq xo'jalik korxonalarida mulklarni qayta baholab turishga doir qaror qabul qilgan. Mulklarni qayta baho-lashda foydalanayotgan mulklar belgilangan yangi narxlar bilan baholanadi. Bunga ishlash davrida yeyilish (eskirish) darajasi ham hisobga olinishi kerak.

Qishloq xo'jaligining texnika vositalarida ro'y bergan o'zgarishlarni o'lchash va hisobga olish uchun mehnatni fond bilan ta'minlash, fond bilan qurollanish, iqtisodiy ko'rsatkichlari qo'llaniladi.

Fond bilan ta'minlanish - qishloq xo'jaligi uchun tayinlangan ishlab chiqarish fondlari qiymatini qishloq xo'jaligida foydalanadigan (haydaladigan yerlar, ekinzorlar) har bir gektarga yoki 100 gektarga to'g'ri keladigan qiymatidir.

Qishloq xo'jalik korxonalarining asosiy fondlarini to'xtovsiz yangilab turish va takomillashtirish taqozo qilinadi, bu esa sohani yuksaltirishning, dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirishning zarur shartidir.

Xo'jalikda traktor, kombayn va boshqa qishloq xo'jalik mashinalari, transport vositalari, ishlab chiqarish binolari va boshqa shu kabi asosiy ishlab chiqarish vositalari mahsulot yetishtirishda qatnashadi va natijada ular asta-sekin yeyilib, eskirib boradi nihoyat, bir necha yil xizmat qilgandan keyin ishdan chiqadi.

Mulklarning eskirishi ikki xil bo'ladi:

- 1) tabiiy eskirish yoki fizik yeyilish;
- 2) ma'naviy eskirish.

Fizik yeyilish - mulklarni ishlab chiqarishda qatnashishi natijasida asta-sekin eskirib borishidir.

Ma'naviy eskirish- mulklarni ishlab chiqarishda ishtirok etish muddatlari bitmasdan chiqib ketishidir. Bu, birinchidan, texnika taraqqiyoti natijasida yangi va unumdorlik jihatidan yuqori

ko'rsatkichlarga ega bo'lgan mashinalar yaratilganda, mashinalar bahosi arzonlashib, kam xarajat bo'ladigan mashinalar ishlab chiqarilganda sodir bo'ladi.

Asosiy vositalarni qayta ta'mirlash jarayoni amortizasiya va amortizasiya ajratmasi bilan bog'liq.

Amortizasiya bu ishlatilgan ishlab chiqarish vositalarini pul ifodasidagi qoplanishi, har xil turdagi ishlarni bajarish yoki boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarni chegirmalari uchun xarajatlarga ma'lum bir qismini ularning boshlang'ich narxini qo'shishdir. Har bir korxonada amortizasiya fondi tashkil etiladi.

Amortizasiya me'yori ishlab chiqarish jarayonida ularni ishlatish sharoitlari, asosiy vositalarni o'rnatilgan ishlatish muddatlari bilan ifodalanadi. Ishlatish muddati qanchalik kamroq bo'lsa, shunchalik amortizasiya ajratmasi foizi ko'proq bo'ladi.

6.2. Xo'jaliklarning traktorlar va boshqa qishloq xo'jalik mashinalariga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash.

Xo'jalikning traktorlar va boshqa qishloq xo'jalik mashinalariga bo'lgan ehtiyoji hududning tuproq-iqlim sharoitiga, xo'jalikning yo'nalishiga, dehqonchilik va chorvachilikdagi ishlab chiqarish texnologiyasiga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Har bir ekinni parvarish qilish texnologiyasi belgilanadi. Unda agrotexnika talablarining barcha zarur ishlarining hajmi va bajarilish muddatini, ish kunining barcha operatsiyalarini va bir-biriga uyg'unlashtirib bo'lmaydigan ayrim operatsiyalarni bajarish uchun rejalashtiriladigan agregatlar tarkibini, soatlik va kunlik ishlab chiqarishni, xizmat ko'rsatuvchi xodimlar sonini o'z ichiga oladi.

Kunlik ishlab chiqarish hajmi smenadagi ishlab chiqarish normasini smena koeffitsiyentiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi, bu koeffitsiyent mazkur agregat ishlaganda sutkadagi smenalarning o'rtacha miqdoriga to'g'ri keladi.

Xo'jalik uchun mashinalar tanlash vaqtida xilma-xil texnologiya jarayonlari iloji boricha kamroq miqdordagi mashina tiplari va konstruksiyalaridan foydalangan holda bajarilishiga asoslanishi zarur. Bu hol mashinalar sotib olish, remont qilish va texnika xizmati ko'rsatish xarajatlarini kamaytiradi. Tajribalarning ko'rsatishicha, shirkat ikki-uch-to'rt markadagi traktorlardan foydalangan holda rejadagi ishlarning hammasini bajarishi mumkin.

Agregat tanlash uchun asosiy ko'rsatkich uning unumdorligi hisoblanadi. Maksimal ish bajarilgan holda, smenada eng ko'p unumdorlikni ta'minlaydigan agregatlardan foydalanish kerak. Agregatlar tarkibi va ularning unumdorligi traktorlarning har bir mehanizmi uchun agrotexnik jihatdan yo'l qo'yuladigan harakat tezligi doirasida hisoblab chiqiladi. Buning uchun traktorlarning turli mehanizmlardagi tortish qarshiligi bo'yicha ma'lumotlar, ish mashinalarining sharoitini (rel'yef, tuproqdagi farqlarni) hisobga olgan ma'lumotlar bo'lishi kerak.

Agregatlarning qarshiligi quyidagi formulalar bo'yicha aniqlanadi:

Haydash agregatlariniki - $R_i = a_o x b x h$

Qolgan agregatlarniki - $R_{agr} = a x V + R_{no}$

Kompleks agregatlarniki - $R_{agr} = a_1 x V_1 + a_2 V_2 + \dots + a_p x V_p$;

Bunda R_n - haydash vaqtida agregatning qarshiligi (kg);

R_{agr} - agregatlarning tortish qarshiligi (kg);

R_{ss} - tirkalgan uskunaning tortish qarshiligi (kg);

A_o - plugning solishtirma qarshiligi ($kg\ sm^2$); b - plugning qamrab olish kengligi (sm); h - haydashning o'rtacha chuqurligi (sm);

a, a_1, \dots, a_n - mashinalarning solishtirma qarshiligi (kg);

B, B_1, \dots, B_n - tegishli mashinalarning qamrab olish kengligi (m).

Agregatning belgilangan qarshiligi uchun traktorlarning tortish tavsifiga qarab agregat harakatining maksimal yo'l qo'yiladigan tezlik mexanizmi aniqlanadi.

Traktorning ish bilan band bo'lish darajasi haqiqiy sarflangan quvvat N_{kr} ning maksimal darajadagi aylanma tortish quvvati $N_{krx\max}$ ga nisbati sifatida aniqlanishi mumkin, bu quvvat traktorning tortish tavsifidan olinadi. Haqiqiy sarflangan quvvat quyidagicha aniqlanadi:

$N_{kp} = R x v$,

R - agregatning qarshiligi; v - agregatning tezligi, km/soat.

Agregatning qamrab olish kengligi-mashinaning qamrab olish kengligini mashinalar miqdoriga ko'paytirish orqali aniqlanadi, haydov agregatlarida esa korpusning qamrab olish kengligini korpuslar soniga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Majmua agregatlar uchun qamrab olish kengligi quyidagiga teng bo'ladi:

$B_{agr} = R_{kp} x n - R_{ss} / a_1 + a_2 + \dots + a_n$.

Majmua agregat tarkibidagi mashinalar soni quyidagi formulalar bo'yicha aniqlanadi:

$n_1 = B_{agr} / B_1, n_2 = B_{agr} / B_2, n_h = B_{agr} / B_h$.

Agregatdagi mashinalar soniga va qamrab olish kengligiga qarab tirkov tanlanadi. Oddiy va majmua agregatlar uchun tirkov fronti quyidagiga teng bo'ladi:

$A = (n-1) x V$

Me'yorlar ishlab chiqilmagan agregatlar uchun unumdorlik quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$W=0,1 \times B_{kx} \times V_{txixT}$ (ga),

bunda V_k -agregatning qamrab olish kenligi (m);

V_t -ish tezligi (km/soat);

t -smena davomida vaqtdan foydalanish koeffitsiyenti;

O -smenaning davom etishi (soat).

Mashina traktor parkining ishini rejalashtirish vazifalaridan biri barcha ekinlarni parvarish qilish va yig'ib terib olish, umuman xo'jalik bo'yicha ishlab chiqarish rejasini bajarish uchun traktor va qishloq xo'jalik mashinalarining talab qilinadigan miqdorini aniqlab chiqishdir.

Belgilangan ishlar hajmini bajarish uchun traktor va boshqa mashinalarning miqdorini energetika vositalaridan foydalanish grafigi asosida aniqlanadi. Grafiklar tuzishda bajariladigan ishlar va operatsiyalar ro'yxati; bu ishlarining fizik gektarlardagi hajmi; ishlarni amalga oshirish muddati; agregatlar sini kabilar boshlang'ich material bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumotlar texnologiya kartalaridan olinadi. Agar kartalar bo'lmasa, mashinalardan foydalanish grafigini tuzish uchun maxsus jadvallar ishlab chiqiladi. Grafiklar har bir mashina uchun tuziladi. Ularni dala ishlarining davrlari bo'yicha yoki butun kalendar yil uchun umuman MTP bo'yicha va xo'jalik bo'yicha ham tuzish mumkin.

G'ildirakli traktorlar va o'zi yurar shassilarga bo'lgan ehtiyojni aniqlashda ulardan chorvachilikda va yordamchi korxonalarda foydalanish ehtiyojlari qo'shimcha ravishda hisobga olinishi zarur. Maxsus mashinalarga bo'lgan ehtiyoj (yer qazish, irrigasiya mashinalari, qishloq xo'jalik ekinlari zararkunandalariga qarshi kurashish uchun mo'ljallangan mashinalar va hokazo) butun shirkat xo'jaligi bo'yicha hisoblab chiqiladi. Grafik bo'yicha ana shu mashinalardan nechtasi qanday muddatlarda ishlatilishi belgilanadi. Traktorlar va boshqa mashinalarga bo'lgan ehtiyoj aniqlagandan keyin, xo'jalik qancha yangi traktor va mashina sotib olish zarurligi va qaysilarini brakka chiqarishni belgilaydi. Tegishli ish sifatini ta'minlamaydigan va ta'mirlash uchun me'yordan ortiq xarajat qilishni talab etadigan mashinalar hisobdan chiqariladi. Mashinalar tasdiqlangan xizmat qilish muddatlariga asosan hisobdan chiqariladi.

6.3. Qishloq xo'jalik texnikalariga texnik xizmatlar ko'rsatish va ta'mirlash.

Qishloq xo'jaligida transportning ahamiyati va roli, avvalo, dehqonchilik va chorvachilikda umumiy texnologiya jarayonining ajralmas qismi bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarish vaqtida yuklarning ko'chirilishi bilan belgilanadi. Pirovard natijalar qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirish va yig'ib-terib olishda, shuningdek, chorvachilik fermalarida har xil yuklarni tashish qanchalik o'z vaqtida va to'g'ri bajarilishiga ko'p jihatdan bo'g'liq bo'ladi.

Transport xarajatlari qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirishga sarflanadigan umumiy xarajatlarning anchagina qismini tashkil qiladi. Transport ishlari ayrim tarmoqlarda ham, butun xo'jaliklarda ham mehnatni va ishlab chiqarishni tashkil etish bilan chambarchas bog'liqdir. Bu vazifani to'g'ri hal etish (urug'likni o'z vaqtida keltirish, yig'ib olingan hosilni tashish va hakazolar) ko'p jihatdan ayrim ishlarni bajarishning muvaffaqiyatini, korxonalar faoliyatining natijalarini belgilab beradi.

Yuk tashish hajmi qishloq xo'jalik ekinlarining yalpi hosiliga, chorvachilik mahsulotlari etishtirish, mineral va tabiiy o'g'itlarni, qurilish materiallarni, yem-xashak, urug'lik, neft mahsulotlari va hokazolarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish asosida hisoblab chiqiladi. Shu bilan birga yuk tashish masofasi va uning takrorlanishi, masalan, donning daladan kombaynda xirmonga keltirilishi va xirmondan omborga yoki tayyorlov punktiga tashilishi hisobga olinadi. Yuk tashishning umumiy hajmi transport vositalari turlariga qarab: yuk avtomashinalarida, traktorlarida va ot-ulovda tashiladigan yuklarga bo'linadi.

Har xil markali mashinalarning ish hajmini aniqlashda:

a) avtomobillarning yillik o'rtacha soni;

b) avtomobillarning bir yildagi ish kunlari soni;

v) avtomobilning kunlik yo'l bosishi (km);

- g)avtomobilning yuk ko'tarish qobiliyati (tonna);
- d)avtomobil parkidan foydalanish koeffitsiyenti;
- e)yuklarning holati va boshqalar hisobga olinadi.

Parkdagi avtomobillarning ishga tayyorgarlik koeffitsiyentini aniqlashda transport vositalarining o'rtacha yurish tezligi, yuklarni ortish va tushurishga sarflanadigan vaqti, yulka tashib boriladigan masofa, yo'l yurishdan foydalanish koeffitsiyenti, transport vositalarining yuk ko'tarish qobiliyatidan foydalanish koeffitsiyenti va ish kunining uzunligi kabilar hisobga olinadi. Qishloq xo'jalik korxonalarining tashish bo'yicha ish hajmi tonna va tonna/kilometrlarda o'lchanadi. Avtomobilning bir kunlik unumdorligi Q_k va P_k quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$Q_k = q_n x y_c t_x T_{ish} x P x V_t / l_{yuk} Q P x V_{t_{to-t}}, t$$

$$R_k = q_n x y_c t_x T_{ish} x P x V_t x l_{yuk} / l_{yuk} Q P x V_{t_{to-t}}, t/km$$

bunda: q_n -transport vositasining yuk ko'tarish qobiliyati;

Y_c -yuk ko'tarish qobiliyatidan foydalanish koeffitsiyenti;

T_{ish} -avtomobillarni ishda bo'lish vaqti, soat;

P - yo'ldan foydalanish koeffitsiyenti;

V_t - avtomobilning texnik harakat tezligi, km/soat;

l_{yuk} -yukli qatnov masofasi;

t_{to-t} - avtomobillarning ortish va tushirish operatsiyalarida turish vaqti, soat.

Avtomobil harakat vositalardan foydalanish koeffitsiyentini topish uchun uchun avtomobillarning ish kunlari kalendar kunlarga bo'linadi.

$$a, o \quad K_n / K_k$$

bunda: a_f -parkdagi avtomobillardan foydalanish koeffitsiyenti;

K_n - transport vositalarining ish kunlari;

K_k - kalendar kunlar.

Masalan 2004 yilda bir parkdagi avtomobillarning ish vaqti fondi 2100 soatni tashkil etdi, deylik. Buni 7 soatlik ish kuniga bo'lsak ish kunlari 300 kun ($2100:7=300$) bo'ladi. 300 ish kunini 365 kalendar kuniga bo'lamiz ($300:365=0,82$), hosil bo'lgan 0,82 raqami mashina avtomobil parkidan foydalanish koeffitsiyentini bildiradi.

Parkdagi avtomobillarning ishga tayyorgarlik koeffitsiyentini topish uchun transport vositalarining ish kunlaridan ta'mirlash va texnik qarovlarda band bo'lgan mashina kunlarini ayiramiz, qolgan ish kunlarini esa transport vositalarining ish kunlariga bo'lamiz.

$$a_r = (K_k - K_p) / K_k$$

bunda: a_f - avtomobillarning ishga tayyorgarlik ;

K_p - ta'mirlash va texnik qarovlarda band bo'lgan kunlar.

Avtomobillarlarining o'rtacha yurish tezligini topish uchun avtomobil yoki tirkagichli traktorlarning o'rtacha bir soatda bosib o'tgan yo'li olinadi:

$$Q = r / t_{yu}$$

bunda: Q - avtomobilning bir soatda o'rtacha bosib o'tgan yo'li (km);

r - ma'lum vaqt ichida bosib o'tilgan yo'l (km);

t_{yu} - yo'l yurishga sarflanadigan vaqt (soat).

Transport vositalaridan foydalanishni to'g'ri tashkil qilish ularga sarflanadigan yonilg'i va moylash materiallarining miqdorini to'g'ri aniqlashda, haydovchi va yukchilarning mehnat unumini oshirishda, yuk tashishni arzonlashtirishda katta ahamiyatga egadir. Agar har t/km ga sarflanadigan yonilg'i miqdorini topish zarur bo'lsa, quyidagi formuladan foydalanish mumkin :

$$B_{tk} = B_n / q_a x K_{ioo} x K_{yut} x Y_{ub}$$

bunda: B_{tk} - bir t/km.ga sarflanadigan yoqilg'i me'yori (litr);

B_n - har 100 km ga sarflanadigan yoqilg'i me'yori (litr);

q_a - avtomobilning yuk ko'tarish qobiliyati (tn);

K_{ioo} -yuk ortilgan avtomobildan foydalanish koeffitsiyenti;

K_{yut} - avtomobildan yuk tashishda foydalanish koeffitsiyenti;

Y_{ub} - yuk bilan yurganda bir t/km ga ortiqcha sarflanadigan yoqilg'i (litr).

Traktor, transport vositalari va qishloq xo'jalik mashinalarini doim ishga yaroqli holatda

saqlab turish uchun ular o'z muddatida texnik qarovdan o'tkaziladi, joriy va kapital ta'mirlash amalga oshiriladi.

Mashinalarga texnik xizmat ko'rsatish - bu mashinani ishlatishda, hamda uni saqlash va tashishda, uning ishga layoqatliligini saqlab turishga qaratilgan ishlar majburiyidir.

Texnik xizmat ko'rsatish: yig'ishtirish - yuvish, yoqilg'i quyish, diagnostika, moylash, tartibga solish va odatda mashinaning asosiy qismlarini yechmasdan qilinadigan boshqa ishlarni o'z ichiga oladi.

Texnik qarovlar va ta'mirlashlarni o'tkazish tartibi qo'yidagilardan iborat: 1) obkatka, 2) texnik qarovlar, 3) vaqt-vaqti bilan nazorat qilish, 4) mashinalarni saqlash.

Qishloq xo'jalik korxonalarida traktor va boshqa mashinalar har smenada (har kuni) va ish davrlarida 1-, 2- va 3- hamda mavsumiy texnik qarovlardan o'tkazib turiladi. Smenalik (kunlik) texnik qarov ishning boshlanishi yoki tamom bo'lishi oldidan o'tkaziladi. Bu qarov traktorlarning aylanadigan polosalarida yoki xo'jalik shiyponlarida o'tkazilishi mumkin. 1-texnik qarov har 7 yoki 8 kunda xo'jalik shiyponida, 2 va 3 texnik qarovlar esa ustaxonada yoki xo'jalik shiyponida, yopiq joyda o'tkaziladi.

Mavsumda o'tkaziladigan texnik qarov esa ko'klamgi, yozgi va kuzgi-qishki ish davrlarida o'tkaziladi. Texnik qarovlar o'z ichiga bir necha ish majmualarini oladi; bular jumlasiga traktorlarni chang va loydan tozalash, alohida mexanizmlarning ishlash holatini tekshirish, uzellarini moylash, yonilg'i sarflashni tekshirish, moy, suv holatlarini tekshirish va hokozolar kiradi.

Sarflangan yonilg'i miqdoriga qarab texnik qarov o'tkazishga traktorlarning ish vaqti va ularning ish turlariga qarab o'rtacha bir soatda sarflanadigan yonilg'i asos qilib olinadi.

Yonilg'i sarflariga qarab texnik qarovlar o'tkazishni rejalashtirishning ancha qulayligi bor. Shuning uchun ham ilg'or xo'jaliklarda yuqorida belgilangan me'yorga asosan, traktorlarga talon berish va yonilg'i sarflangandan so'ng texnik qarov o'tkazish joriy qilingan. Bunday tartib traktorlarning salt yurishini va avariyalarni kamaytiradi.

Ta'mirlash. Traktor va boshqa qishloq xo'jalik mashinalarini texnik qarovlardan o'tkazish bilan bir vaqtda joriy va kapital ta'mirlash ham amalga oshiriladi.

Mashina ta'miri - bu ularni ishga layoqatliligini ushlab turish va tiklash bo'yicha ishlar majmuidir. Mazmuni va vazifasi bo'yicha ta'mirlash joriy va kapital turlarga bo'linadi.

Joriy ta'mir (JT) - bu mashina ishga layoqatliligini kafolatli ta'mirlash uchun, eksplutasiya jarayonida qili-nadigan ta'mir turidir.

U mashinaning ayrim qismlarini almashtirish yoki tiklash hamda ularni tartibga solishdan iboratdir. Mashinani ishlatishda nosozliklarni tuzatish ham joriy ta'miriga taalluqli. Bunday ta'mirni ekspluatasiyaviy deb ham atashadi.

Kapital ta'mir (KT) - bu mashina, resursini to'liq tiklash va sozligini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan ta'mir turi. Unda uni istalgan qismlari, shu jumladan asosiylarini ham, tiklash, almashtirish va tartibga solish nazarda tutildi.

Kapital ta'mir mashinani to'liq qismlarga ajratishni, qismlarini tiklash yoki almashtirishni, agregatlarni ta'mirlash yoki almashtirishni hamda ularni keyingi yig'ilishi, tartibga solinishi va tekshirilishini nazarda tutadi.

Tirkagich va osma mashinalar joriy, avtomashinalar kapital, o'rta va joriy ta'mirlanadi. Ta'mirlashni o'tkazishda ham, asosiy ko'rsatkich qilib traktorlarning bajargan ish hajmi, sarflangan yonilg'i miqdori va moto-soat olinadi.

Hamma markalardagi traktorlarni joriy ta'mirlash 1920 moto-soat, kapital ta'mirlash esa 5780 moto-soat ishlagandan so'ng o'tkaziladi. Joriy ta'mirlash ikki marta o'tkazilishi kerak. Birinchi marta 1920, ikkinchi marta 3840 moto-soat ishlagandan so'ng, kapital ta'mirlash bir marta -5760 moto-soat ishlagandan so'ng o'tkaziladi.

Ta'mirlashni sarflangan yonilg'i miqdoriga qarab o'tkazish tartibi ham yuqorida ko'rib o'tilgan texnik qarovlar tartibiga o'xshash bo'ladi. Masalan, traktor bir soat ish vaqtida o'rta hisobda 2,5 kg yonilg'i sarflasin. Bunday holda yonilg'i sarfi bo'yicha bu traktorni joriy ta'mirlash $2,5 \times 1920$ moto-soat=4800 kg, kapital ta'mirlash $2,5 \times 5760=14400$ kg yonilg'i

sarflangandan so'ng o'tkazilishi kerak.

Traktor bajargan ishning miqdoriga qarab ta'mirlashda ularning bir soatlik ish unumi va ishlagan moto-soati asos qilib olinadi, ya'ni bir soatlik ish unumi moto-soatga ko'paytiriladi. Masalan, T-75 traktorining 1 soatlik ish unumi yer haydashda 0,8 gektarga teng deylik. Bunday holda joriy ta'mirlash (shartli etalon gektar hisobida) $0,8 \times 1920 = 1536$ ga, kapital ta'mirlash $0,8 \times 5760 = 4608$ ga yer haydagandan so'ng o'tkaziladi.

MTP lar ta'mirlash va qarovlarning yillik operativ rejalarini tuzadilar. Bu reja MTP da kelgusi yil uchun traktor va boshqa mashinalarning bajaradigan rejali ishlariga qarab belgilanadi. Mazkur rejaga muvofiq MTPning yillik ishlab chiqarish moliya rejalariga ham har bir traktor va mashinaning necha marta capital va joriy ta'mirlanishi, shuningdek, ta'mirlash uchun qilinadigan xarajatlar ko'rsatiladi.

Traktorlarni markalari bo'yicha texnik qarovlardan o'tkazish soni (1 -chi, 2-chi, 3-chi texnik qarovlarni) hisoblash uchun joriy ta'mirlashlar sonini aniqlash formulasidan foydalaniladi. Traktorlarni capital ta'mirlashlar soni quyidagi formula bilan hisoblanadi.

$K_p = TH \times T_s / K_{pz}$,

Bunda K_p -kapital ta'mirlashlar soni;

TH-bir traktorning yillik yuklamasi (ga hisobida, yumshoq yer haydashda);

T_s - mazkur markadagi traktorlar soni;

K_{rz} -zonalar (xo'jaliklar) bo'yicha capital ta'mirlashlar o'rtasidagi ish hajmi.

Ayrim markadagi traktorlarni joriy ta'mirlash soni

$J_s = T_n \times T_s / J_{xu} - K_r$

Formula yordamida hisoblanadi. Bu formula suratida yuqoridagi formula ko'rsatkichlarining o'zi olingan, maxrajida K_{rz} o'rniga J_{xu} quyilgan, xo'jalik uchun belgilangan joriy ta'mirlashlar o'rtasidagi ishlar hajmini bildiradi.

6.4. Moddiy- texnik ta'minotni tashkil etishning yangi shakllari.

Hozirgi paytda qishloq xo'jaligi korxonalarini moddiy-texnik ta'minlashni tashkil etishning lizing, dillerlik firmalari, ulgurji savdo, mashina-texnika stansiyalari, texnika ijara punktlari va boshqa usullari keng yoyilib bormoqda.

Lizing bu - eng avvalo investisiyaviy maqsadlarda texnika va boshqa ishlab chiqarish vositalarini ijaraga olish va keng ma'noda iqtisodiy munosabatlarning nisbatan keng usuli sifatida moliya-kredit, savdo, ijara hamda boshqa operatsiyalarni bajarishdan iboratdir.

Lizing - mol mulkni uzoq muddatli ijaraga olish va sotib olish asosida vaqtinchalik foydalanishga berish bo'yicha ishlarning mulkiy munosabatlar majmuasidir.

Rivojlangan davlatlarning bozor iqtisodiyotiga o'tishining dastlabki jarayonida lizing operatsiyalari qo'llanilganda, deyarli barcha davlatlarda iqtisodiy o'sishga sezilarli turtki bo'lgan.

Natijada, lizing operatsiyalarini qo'llash jarayonida lizing oluvchi korxonalar quyidagi qulayliklarga ega bo'ladi:

- ***ishlab chiqarishni tashkil etishni katta investisiyaviy xarajatlarsiz hamda boshqa resurslar jalb qilmagan holda amalga oshirishga imkon beradi;***

- uskunalarning tez eskirish sharoitida korxonalariga ishlab chiqarishda yangi va zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish imkoniyati yaratiladi;

- ishlab chiqarishni tashkil etish jarayonida mol-mulk hamda moliyaviy resurslarga bir vaqtda egalik qilish imkoniyatiga ega bo'linadi;

- operativ lizingdan foydalanganda mol mulk solig'idan ozod etiladi;

- jalb qilingan texnologiya va uskunalarning haqini ishlab chiqarishdan tushgan daromaddan to'lash imkoniyati va boshqa turdagi qulayliklarga ega bo'linadi.

Tijorat banklarining kreditlariga nisbatan lizing xo'jalik yurituvchi subyektlarning, xususan fermer va dehqon xo'jaliklarini asosiy vositalar bilan ta'minlashning moliyaviy jihatdan qulay usuli hisoblanadi. Jumladan, lizing operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida, lizing oluvchi xo'jalik yurituvchi subyektlardan, jalb etiladigan investisiya mablag'larining 120% garov ta'minoti, loyihada 25% ishtirok kabi shartlar talab etilmaydi.

Lizing operatsiyalari uchun qo'llaniladigan imtiyozlar quyidagilardan iborat:

- lizing to'lovvari qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladi;
- lizingga berish uchun O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan texnologiya uskunalari - vakil bankning tegishli tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, bojxona to'lovidan va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi;
- lizing oladigan xo'jalik yurituvchi subyektlar lizingga berilgan mulkka soliq to'lashdan lizing shartnomasi amal qiladigan muddatgacha ozod qilinadi;
- lizing beruvchi soliqqa tortish chog'ida u lizingga berish uchun mulk xarid qilishga olgan kreditlar foizi hamda belgilangan boshqa to'lovlarning summasi uning jami daromadidan chegirib tashlanadi.

Lizingning iqtisodiy mohiyati quyidagicha:

Lizing kompaniyasi tayyorlovchilardan mahsulotlarni sotib olib, ularni iste'molchilarga ijara sifatida taqdim etadi. Mulk shartnomada ko'rsatilganidek ma'lum bir muddatda, iste'molchining belgilangan to'lovni tolashi bilan beriladi.

Shartnomada iste'mol qiymati, xizmat ko'rsatish bahosi va kompaniya qo'shimcha qiymatining bir qismi ham ko'rsatiladi. Ayni paytda mulk kompaniyaning shaxsiy mulki bo'lib qolaveradi, ammo shartnomada ko'rsatilgan muddat tugashi bilan uni qoldiq qiymat bilan iste'molchi mulkiga o'tkazish mumkin.

Demak, lizing usuli asosida ishlab chiqarish vositalarini sotish-olish va ijaraga berish operatsiyalari yotadi. Quyidagilar lizing operatsiyalarining majburiy ishtirokchilari hisoblanadi: korxonasi - texnikani tayyorlovchi, lizing kompaniyasi - lizingchi va qishloq xo'jaligi korxonasi - lizingni oluvchi. Lizing operatsiyalarini moliyaviy ta'minlash uchun kompaniyalar qishloq xo'jaligi

vazirligi huzurida lizing fondlari uchun maxsus tashkil etilgan lizing fondi, bank kreditlari va mahalliy moliya organlaridan foydalanishadi. Shu sababli lizing qishloq xo'jaligi korxonalarini zaruriy texnika va boshqa ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlashning ilg'or bir usuli hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini moddiy-texnik ta'minlashning tashkiliy usuli sifatida lizing qator ijobiy tomonlarga ega: zaruriy texnikani bir paytda nisbatan arzon narxlarda xarajatlar bilan sotib olish, lizing to'lovlari muddatini uzaytirish, lizing predmeti qiymati indeksasiyasi xavfining yo'qligi, lizing xizmatlariga faqat pul emas, natura bilan ham to'lash, lizingda qishloq xo'jaligi korxonalariga imtiyozlar berish, lizing to'lovlari joriy zararlarga kiritish, ijara texnikasidan yuksak samarali foydalanish va boshqalar kiradi.

Lizingning asosiy kamchiliklari lizing faoliyatini monopolizatsiya qilish mumkinligidir. Lizing shartlari ko'pincha qishloq xo'jaligi korxonalarini uchun og'ir bo'lishi mumkin. Dastlabki to'lovlarda texnika qiymati 25-30 % ga yetishi mumkin. Bunda faqat xizmat haqlarini emas, balki lizing kompaniyasining qo'shimcha qiymatini ham to'lashga to'g'ri keladi. Lizing mexanizmi qishloq xo'jaligi korxonalarining qiyinchiliklarini to'la hisobga olmaydi. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish darajasiga qarab, lizing amaliyotda keng qo'llanilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini va agrosanoat tizimini moddiy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlashni yaxshilash tadbirlaridan biri moddiy-texnik resurslarning ulgurji savdo tizimi, shuningdek ta'minot sohasida turli ishlar va xizmat ko'rsatish bozorlarini tashkil etish hisoblanadi.

Ulgurji bozor bu - barcha bozor ishtirokchilari: iste'molchilar va ishlab chiqarish vositalarini tayyorlovchilar, agrosanoat, boshqa servis xizmatlari, agrosanoat tizimi boshqaruv organlari, banklar, sug'urta kompaniyalari va h.z.lar o'zaro faoliyatining tashkiliy formasidir.

Ulgurji bozorlarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: sanoat hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga nisbatan baholar paritetiga erishish; agrosanoat tizimi va sanoat o'rtasida ekvivalent ayirboshlashni ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va agrosanoat tizimining boshqa tovar ishlab chiqaruvchilarini moddiy-texnik resurslar bilan ta'minlash darajasini yuksaltirish; bozor munosabatlariga moslashuv davrida qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlari

ishlab chiqaruvchi mamlakat xo'jaliklari hamda korxonalariga davlat yordamiga erishuv; iste'molchida pul resurslariga tanqislik sharoitlarida tovar ayirboshlash operasialarini tashkillashti-rishni takomillashtirish; agrosanoat tizimi vositalari uchun talab va takliflar bo'yicha axborotlar doirasini kengaytirish; ularning o'sib borishini tartibga solish, raqo-bat muhitini kengaytirish; hududiy mashinasozlik ishlab chiqarishini tashkil etish hisobiga, moddiy-texnik resurslarga bahoni pasaytirishga erishish va h.z.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini moddiy-texnik jihatdan ta'minlashni tashkil etishning formalari va yo'llari rang-barangdir. Shu sababli qishloq xo'jaligi korxonalariga har bir aniq holatda ushbu forma va yo'llarning yutuq va kamchiliklarini hisobga olgan holda asoslangan eng qulay variantini tanlash tavsiya qilinadi.

6.5. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining moddiy-texnik ta'minotini tashkil etish.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyatining asosiy shartlaridan biri ularni o'z vaqtida barcha zaruriy vositalar va mehnat qurollari bilan ta'minlashdan iboratdir.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini moddiy-texnik jihat-dan ta'minlashni tashkil etish quyidagi asosiy tadbirlarni qamrab oladi: xo'jalikning ishlab chiqarish vositalariga ehtiyojini aniqlash; ular uchun asosli talabnomalarni tuzish va taqdim etish, talabnomalarni ta'minot tashkilotlari, tayyorlovchi zavodlar hamda moddiy-texnik resurslarni yetkazib beruvchilarga yetkazish; ishlab chiqarish vositalarini yetkazib berish bo'yicha shartnomalar tuzish va bu shartnomalarni o'z vaqtida muvaffaqiyatli bajarish.

Qishloq xo'jaligi korxonasining texnika va boshqa ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan ehtiyoji amaldagi uslubiy tavsiyanomalar bo'yicha aniqlanadi. Talab qilinadigan mashinalarning umumiy miqdoridan xo'jalikda mavjud mashinalar soni chiqarib tashlanadi va ularni olish zarurati rejalashtirilgan yilga kiritiladi. Bu zaruriyat har tomonlama asoslanishi, bajariladigan ishlar, mahsulotlar ishlab chiqarish rejasi va xo'jalikning moliyaviy imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lishi, aniq tuzilgan biznes-reja asosida amalga oshirilishi kerak.

Mineral o'g'itlar va kimyolashtirishning boshqa vositalariga bo'lgan zaruriyatni, odatda, tuman ishlab chiqarish birlashmalari va tizimining boshqa tashkilotlari tomonidan aniqlanadi.

Xo'jalikda pul mablag'lari yetishmagan sharoitda va kimyoviy vositalarning juda qimmatligida ularga bo'lgan zaruriyatning eng kam miqdori olinadi. Ishlab chiqarish korxonasining moliyaviy holati va to'lov imkoniyati yaxshilanishi miqdoriga qarab, bunday zaruriyat eng yuqori darajaga yetkazib boriladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini va agrotaxminot tashkilotlarining o'zaro munosabatlari har yili yetkazib berish haqidagi shartnomalar asosida o'rnatiladi. Shartnomalar moddiy-texnik vositalarni realizatsiya qilish bo'yicha tomonlarning huquq va majburiyatlarini ifodalovchi hujjatdan iborat bo'ladi. Bu hujjatda: yetkazib beriladigan ishlab chiqarish vositalarining nomlari, materialning sifatligi va yaxshi navligi, baholari, pul yoki natura shakli bilan to'lov shartlari, xaridorning to'lov va pochta rekvizitlari, vositalarni yetkazib berish muddatlari va boshqa zaruriy moddalar aniq ko'rsatiladi.

Vositalarni yetkazib berish shartnomalari bevosita xo'jaliklar va yetkazib beruvchi korxonalar, ularning vositachilari, neft mahsulotlari uchun neft ta'minot bo'linmalari va boshqa yetkazib beruvchilar hamda vositachilar bilan ham tuzilishi mumkin.

Ishlab chiqarish vositalarini yetkazib berish bo'yicha shartnomalarning muvaffaqiyatli bajarilishi agrotaxminot tashkilotlari faoliyatining asosiy dasturidir.

Bu dasturda qishloq xo'jaligi korxonalarini o'z vaqtida moddiy-texnik resurslarga ega bo'lishlari uchun zaruriy yordam ko'rsatish ustuvor tadbir hisoblanadi.

Biroq, tajribadan ma'lumki, moddiy-texnik resurslarning juda qimmatligi, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan baholarning beqarorligi, pul vositalarining yetishmasligi tufayli ko'p hollarda zaruriy ishlab chiqarish vositalariga ega bo'la olmaydilar. Sanoat korxonalarini iste'molchilarning to'lov qobiliyati pastligi uchun mahsulotlarini o'z vaqtida realizatsiya qila olmaydi. Natijada ta'minot tashkilotlari ham zarar ko'radilar.

Bunday holatdan qutulish uchun davlat tomonidan bo'lgani kabi qishloq xo'jaligi uchun ishlab chiqarish vositalari bozorining barcha ishtirokchilaridan katta tadbirlarni amalga oshirish

talab qilinadi.

Birinchidan, qishloq xo'jaligi korxonalarining zaruriy ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lishi uchun davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, xo'jalik yuritishning yangicha shart-sharoitlarida moddiy-texnik ta'minlashni tashkil etishni takomillashtirish va inqiroz holatidan chiqish bo'yicha aniq tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi. Bu tadbirlarga: ta'minot tashkilotlari faoliyatini qaytadan tashkil etish, faoliyatning ushbu sohasida marketingni o'zlashtirish, lizingdan foydalanish, dillerlik firmalari xizmati, barterlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining kelgusi hosili hisobidan iste'molchilarga ishlab chiqarish vositalarini avansga berish, ulgurji bozor tizimini rivojlantirish, mashina-texnika stansiyalari, texnikani ijaraga berish puktlarini tashkil qilish va boshqalar kiradi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini moddiy-texnik ta'minlashda ta'minot tashkilotlarining faoliyatini zamonaviy shart-sharoitlarga mos ravishda qayta tashkil etish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini moddiy-texnik ta'minlash sohasida marketing xizmati ishlab chiqarish vositalariga to'lov qobiliyatini oshirishga talabning majmuaviy tizimi va uning ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga harakatini tezlashtirish, ularning ehtiyojlarini to'la qondirish va shu asosda daromad olishni qamrab oladi.

Marketing tadqiqotlari xulosalariga ko'ra, korxonalar rivojining eng istiqbolli yo'nalishi quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

chakana savdo, barter (tovar ayirboshlash) operatsiyalari; qishloq xo'jaligi mahsulotlarining kelgusi hosili hisobidan ishlab chiqarish vositalarini iste'molchilarga avansga berish; kreditlash; reklama-nashr faoliyati; qishloq xo'jaligi korxonalar va agrosanoat tizimining, qayta ishlash korxonalarining hamkorlikdagi ishlab chiqarish - sotish faoliyati; uy-joylar hamda ishlab chiqarish obyektlari qurilishi va h.k.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida pul mablag'lari yetishmasligi yoki yo'qligi sharoitlarida va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini realizatsiya qilishda qiyinchiliklar mavjud bo'lganda korxonalar faoliyatida tovar ayirboshlash operatsiyalari ma'lum ahamiyat kasb etadi. Bunda jamiyat qishloq xo'jaligi mahsulotlariga ayirboshlash hisobiga agrosanoat tizimi korxonalariga ushbu yo'l bilan mashinalar, asbob uskunalar, zaxira qismlar va qurilish materiallari yetkazib beriladi.

Nazorat uchun savollar.

1. Ishlab chiqarish vositalarining ta'rifi
2. Asosiy ishlab chiqarish vositalariga ta'rif bering
3. Asosiy ishlab chiqarish vositalarini turkumlang
4. Qishloq xo'jaligiga bevosita aloqasi bo'lgan asosiy vositalar
5. Qishloq xo'jaligiga bevosita aloqasi bo'lmagan asosiy vositalar
6. Asosiy vositalarni yemirilish turlari
7. Amortizatsiya me'yorini aniqlash formulasi
8. Qishloq xo'jalik korxonalarida texnika vositalariga bo'lgan talabni aniqlang
9. Aylanma vositalar deb nimaga aytiladi.
10. Aylanma vositalarni turkumlang.
11. Muomila vositalariga nimalar kiradi.
12. Aylanma ishlab chiqarish jamg'armalariga nimalar kiradi.
13. Aylanma ishlab chiqarish vositalari tezligini aniqlash formulasi
14. Aylanma vositalar necha kunda bir marta aylanishi qanday aniqlanadi.
15. Aylanma vositalar aylanish tezligi deb nimani tushunasiz va unga qaysi omillar ta'sir qiladi.
16. Asosiy ishlab chiqarish vositalarining samaradorligi qaysi ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi.